


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60110200 – Maktabgacha ta'lim  
bakalavriat ta'lim yo'nalishining  
MALAKA TALABLARI**

**Toshkent-2025**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

| <b>T/r</b> |                                                              | <b>bet</b> |
|------------|--------------------------------------------------------------|------------|
| <b>1.</b>  | <b>Umumiy tavsifi.....</b>                                   | <b>4</b>   |
| 1.1.       | Qo'llanish sohasi .....                                      | 4          |
| 1.1.1.     | Malaka talablarining qo'llanilishi .....                     | 4          |
| 1.1.2.     | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....              | 4          |
| 1.2.       | Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....                         | 4          |
| 1.2.1.     | Kasbiy faoliyatning sohalari.....                            | 4          |
| 1.2.2.     | Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....                       | 4          |
| 1.2.3.     | Kasbiy faoliyatlarining turlari .....                        | 5          |
| 1.2.4.     | Kasbiy vazifalar.....                                        | 5          |
| <b>2.</b>  | <b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b> | <b>7</b>   |
| <b>3.</b>  | <b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>             | <b>8</b>   |
| <b>4.</b>  | <b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>                   | <b>10</b>  |
|            | <b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>                         | <b>11</b>  |
|            | <b>Kelishuv varog'i.....</b>                                 | <b>12</b>  |

## **1. Umumiy tavsifi.**

60110200 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60110200–Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohasi:**

maktabgacha ta'lim tashkilotida kasb standartiga muvofiq tarbiyachi, direktor o'rinbosari maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

maktabgacha ta'lim fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori, kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

maktabgacha ta'lim, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyekti:**

Davlat va nodavlat, oilaviy, DXSh maktabgacha ta'lim tashkilotlarida;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

davlat boshqaruv organlari;

Maktabgacha ta'lim muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Pedagogik faoliyatida:**

**o'quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va MO'D larining talab va maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, variativ o'quv dasturlari ishlab chiqish, mashg'ulotning aniq maqsad va natijalariga ko'ra mashg'ulot texnologiyasini ishlab chiqish, differensial ba kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg'ulot shakllari va usullarini tanlash, o'quv, namoyish va didaktik tarqatma materiallardan foydalanish;

**ta'lim samaradorligini ta'minlash:** mashg'ulot maqsadlariga ko'ra tarbiyalanuvchilar imkoniyatidan kelib chiqib maqsad va vazifalarni belgilash, mashg'ulot mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, mashg'ulot davomida vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan maqsadli (samarali) foydalanish, tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra ta'lim-tarbiyani tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini monitoring qilish, bolalarni yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning tayanch kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni tatbiq etish, tarbiyalanuvchilarning o'quvchilarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida differensial yondashuvni qo'llash, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarda motivatsiyani shakllantirishga erishish, ijtimoiy-hissiy muloqotni yaratish, inklyuziv ta'lim-tarbiyani amalga oshirish;

**o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalarni tanlash, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun maqsadli (samarali) usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini monitoring va tahlil qilish, mashg'ulot rejasi va usullarini integratsiyalashtirishda tahlil natijalarini optimallashtirish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud ba kelajakdagi muammolarni prognozlash va taxlil qilish;

**tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy,

interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda mashg'ulotdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq tarbiyalanuvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, tarbiyalanuvchilarning jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olish, psixologik sog'lom muxitni yarata olish, tarbiyalanuvchilarda faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

**xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** tarbiyalanuvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni yaratish, tarbiyalanuvchilarga maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, moslashish (adaptatsiya) davri bosqichlarida tarbiyalanuvchilarga individual to'g'ri yondasha olishi, nizoli vaziyatlarda optimal yechim va qaror chiqara olishi, tarbiyalanuvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari ba axborot dunyosida xavfsiz bo'lishga yordam bera olish;

**o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, mutaxassislik fanlariga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, pedagogik faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro mashg'ulotlarda qatnashish, va tahlil qilish, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish, kasbiy faoliyatda xorijiy tajribalardan foydalanish, zaruriy o'zgarishlarni amalga oshirish; hayot davomida bilim tamoyiliga amal qilishda namuna bo'lish;

**hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** Tarbiyalanuvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) maktabgacha ta'lim tashkilot ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish, tarbiyalanuvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) tarbiyalanuvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va tarbiyalanuvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, psixologlar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

maktabgacha ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

maktabgacha ta'limga doir zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, internet tarmog'ida eng so'nggi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiiq etish;

maktabgacha ta'lim metodikasi ba ta'lim yo'nalishidagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

fanlararo integratsiyani amalga oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish;

Maktabgacha ta'limga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi.

#### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantiruvchi metod va texnologiyalarni bilish hamda amaliyotda qo'llay olish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

raqamli savodxonlik, kibermadaniyat va internet xavfsizligi bo'yicha tushunchalarni shakllantirish;

akademik halollik tamoyillariga rioya qilish, plagiatga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish;

o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, o'z yurtining tarixiy merosi, qadriyatlari, buyuk ajdodlari va hozirgi taraqqiyot yo'lini chuqur anglashga yordam berish;

ommaviy axborot vositalarida tarqalayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholashga o'rgatish;

axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

kasbiy axloq etikasiga rioya qilish;

pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

kasbiy muammolar yechimini topish;

internet saytlarini yaratishda til me'yorlarini belgilash;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish;

ta'limda inkluzivlikni ta'minlash, nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan alohida yondashuv asosida ishlash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talab:**

shaxsiy davomli rivojlanish va o'sishga intilishi, obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, kreativ va innovatsion fikrlash, yangicha yondashuvlarni tadbiq eta olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda ma'naviy mezonlar asosida ta'lim-tarbiyani tashkil eta olish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalarini va metodlaridan samarali foydalana olish;

tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda kasb faoliyatida foydalana bilish;

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq;

axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash;

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalarini talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik;

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni subyektlarining hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

ta'lim jarayoni subyektlarining individual qiziqishi, qobiliyati va tempiga qarab yondoshish, inklyuziv ta'lim tamoyillariga amal qilish;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

ta'lim, fan va amaliyot integratsiyasi asosida raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi tarbiyalanuvchilarga axloqiy va madaniy namuna bo'la olishi, milliy an'ana va madaniyat ruhida tarbiyalash;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi "ijtimoiy-pedagog", tarbiyalanuvchining ruxiy holatini hiss qilishi, tushunish va unga maslaxat berish, qo'llab-quvvatlash va ilhomlantirish;

tanqidiy fikrlash texnologiyasi va metodikasini o'zlashtirganlik;

maktabgacha ta'lim tashkilotlar tarbiyachisi texnika xavfsizligini ta'minlash va laboratoriya tajribalarini xavfsiz o'tkazish;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj tarbiyalanuvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

korporativ tamoyillar asosida jamoa bilan ishlash;

ta'lim klasteri asosida kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga kasbiy jihatdan tayyorlanish;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik;

“Bolalar nutqini o'stirish”, “Tasviriy faoliyatga o'rgatish”, “Jismoniy tarbiya”, “Elemenar matematik ta'surotlarni shakllantirish”, “Tabiat bilan ytanishtirish” o'quv jarayoni bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 5-6-semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. o'quv tanishuv amaliyotlari
2. pedagogik amaliyot
3. Bitiruv oldi amaliyoti

**Fanlar katalogining tuzilishi:**

| <b>T.r.</b> | <b>Fanning malakaviy kodi</b> | <b>O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari</b>      | <b>Umumiy yuklama hajmi (soatda)</b> | <b>Umumiy yuklama hajmi (kredit)</b> | <b>Semestri</b> |
|-------------|-------------------------------|--------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|-----------------|
| <b>1.00</b> |                               | <b>Majburiy fanlar*</b>                                            |                                      |                                      |                 |
| 1.01        | BPsPD11210                    | Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi                        | 300                                  | 10                                   | 1,2             |
| 1.02.       | O'EYT1204                     | O'zbekistonning eng yangi tarixi                                   | 120                                  | 4                                    | 2               |
| 1.03.       | MSVAX1105                     | Mediasavodxonlik va axborot madaniyati                             | 150                                  | 5                                    | 1               |
| 1.04.       | O'RT1104                      | Amaliy o'zbek (rus) tili.                                          | 120                                  | 4                                    | 1               |
| 1.05.       | FAL1204                       | Falsafa                                                            | 120                                  | 4                                    | 2               |
| 1.06.       | BSIFO'11210                   | Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish           | 300                                  | 10                                   | 1,2             |
| 1.07.       | BIM1105                       | Bolalarning ijtimoiy moslashuvi                                    | 150                                  | 5                                    | 1               |
| 1.08.       | IMYBP11210                    | Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi                   | 300                                  | 10                                   | 1,2             |
| 1.09.       | RMTET1204                     | Rivojlantiruvchi markazlarni tashkil qilish texnologiyasi          | 120                                  | 4                                    | 2               |
| 1.10        | SB.O'DICHM1306                | Sinf boshqaruvi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish | 180                                  | 6                                    | 3               |
| 1.11        | TB1404                        | Ta'limda baholash                                                  | 120                                  | 4                                    | 4               |
| 1.12        | InkT.GP1405                   | Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika                              | 150                                  | 5                                    | 4               |
| 1.13        | DIN1304                       | Dinshunoslik                                                       | 120                                  | 4                                    | 3               |
| 1.14        | TFO'M13410                    | Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi                           | 300                                  | 10                                   | 3,4             |
| 1.15        | TBTM13409                     | Tabiat bilan tanishtirish metodikasi                               | 270                                  | 9                                    | 3,4             |
| 1.16        | BJT13409                      | Bolalar jismoniy tarbiyasi                                         | 270                                  | 9                                    | 3,4             |
| 1.17        | EMTShM15608                   | Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi        | 240                                  | 8                                    | 5,6             |
| 1.18        | BMTM1606                      | Bolalar musiqiy ta'limi metodikasi                                 | 180                                  | 6                                    | 6               |
| 1.19        | MTM15608                      | Maktabgacha ta'lim menejmenti                                      | 240                                  | 8                                    | 5,6             |
| 1.20        | NO'M1504                      | Nutq o'stirish metodikasi                                          | 120                                  | 4                                    | 5               |
| 1.21        | MTCHTO'M1504                  | Maktabgacha ta'limda chet tilini o'qitish metodikasi               | 120                                  | 4                                    | 5               |
| 1.22        | RTIX1504                      | Rejalashtirish va tarbiyachining ish hujjatlari                    | 120                                  | 4                                    | 5               |
|             |                               | <b>Jami</b>                                                        | <b>4110</b>                          | <b>137</b>                           |                 |
| <b>2.00</b> |                               | <b>Tanlov fanlari</b>                                              | <b>270</b>                           | <b>9</b>                             | <b>3-6</b>      |
|             | <b>Kvalifikatsiya</b>         | <b>Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi va uslubchisi</b>        |                                      |                                      |                 |
|             |                               | <b>Malakaviy amaliyot</b>                                          | <b>840</b>                           | <b>28</b>                            | <b>2,-6</b>     |
|             |                               | <b>Davlat attestatsiyasi (BMI)</b>                                 | <b>180</b>                           | <b>6</b>                             | <b>8</b>        |
|             |                               | <b>JAMI</b>                                                        | <b>5400</b>                          | <b>180</b>                           |                 |

*\*Mazkur ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining tanlov fanlar qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.*

**Bibliografik ma'lumotlar**

**UDK 372.1**

**Guruh T 55**

**OKS 01.040.01**

---

**Tayanch so'zlar:**

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, pedagog, maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish, bolalarning ishtimoiy moslashuvi, ijodiy faoliyatga o'rgatish, maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari, nutq o'stirish metodikasi, bolalarda jismoniy tarbiya, tasviriy faoliyatga o'rgatish majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

**Kelishuv varag'i**

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**  
**Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti**


Rektor v.v.b.  Z. Raxmanov


2025-yil «» \_\_\_\_\_

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi


Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi


Direktor  A. Xoliqov

2025-yil «» \_\_\_\_\_

M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor  G. Muxamedov

2025-yil «» \_\_\_\_\_

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi


Respublika ta'lim markazi

Direktor v.v.b.  D. Norboyeva

2025-yil «» \_\_\_\_\_

M.O'.

Guliston davlat pedagogika instituti

Rektor  J. Karshibayev

2025-yil «» \_\_\_\_\_

M.O'.